

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

ISMAILOV TIMUR

**« INVESTITsIYa JARAYoNLARINI MOLIYaLASHtIRISHDA DAVLAT
BYuDJETI MABLAG‘LARINING O‘RNI VA AHAMIYaNi»**

↑

Ѕ340600 -“Moliya”- ta‘lim yunalishi bo‘yicha bakalavr darajasini ѓlish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n.,dots.K.Sharifhodjaeva

«_____»_____ 2012 y.

Ilmiy rahbar: _____ **X.Axmedov.**

TOSHKENT - 2012

INVESTITSIYA JARAYONLARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT BYUDJETI MABLAG'LARINING O'RNI VA AHAMIYATI

REJA:

I BOB. INVESTITSION FAOLIYAT VA DAVLAT INVESTITSION SIYOSATI TASHKILiy-HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Investitsion faoliyat va uni moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari
- 1.2. Davlat investitsion siyosatining mohiyati, maqsadi va ustuvor yo'nalishlari

II BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINI DAVLAT BYUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....

1. Davlat byudjetidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish tahlili.....
2. Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish shakllari tahlili.....
3. Investitsiya jarayonini amalga oshirishda davlat investitsiya dasturini amalga oshirish monitoringi

III BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINI MOLIYALASHTIRISHDADA DAVLAT BYUDJETINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....

- 3.1. Investitsion jarayonlarni moliyalashtirishda davlat investitsion dasturlarining ahamiyatini oshirish yo'llari.....
- 3.2. Investitsion loyihalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari.....

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar barcha tarmoqlarda amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar bilan bevosita bog'liqdir. Moliyaviy resurslarni cheklanganligi sababli ularni safarbar qilish va samarali ishlatishning moslashuvchan mexanizmini davlat investitsion siyosati doirasida hamda alohida olingan korxonalar miqyosida tashkil etilishi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida respublikamiz iqtisodiyoti uchun muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda barcha moliyaviy manbalar hisobidan texnik va texnologik qayta jihozlash uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi 3 milliard 800 million dollardan oshgani yoki 2010 yildagi barcha kapital qo'yimlarning 37,5 foizini tashkil etgani printsiplial muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bu ko'rsatkichlar 2011 yil yakunlariga ko'ra 2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo'yimlar o'zlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etgani mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining jadal faollashib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tuzilmaviy o'zgartirishlarni amalga oshirish kuchli investitsiya siyosatini olib borish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda, investitsion siyosatning muhim dastaklaridan biri sifatida xorijiy investitsiyalari muhim ahamiyatga egadir. Bu borada iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, ularning 78,8 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

Yuqorida aytib o'tilgan jihatlar investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining o'rni va ahamiyatini yoritib berish mavzuning bugungi kunda dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Bitiruv-malakaviy ishining maqsadi bo'lib, investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining o'rni va ahamiyati yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- investitsion faoliyat va uni moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- davlat investitsion siyosatining mohiyati, maqsadi va ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqish;
- investitsiya jarayonlarini davlat byudjetidan moliyalashtirishning amaldagi holatini tahlil qilish;
- davlat byudjetidan kapital qo'yimlarni moliyalashtirish tahlilini olib borish;
- investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish shakllari tahlilini ko'rib chiqish;
- investitsiya jarayonini amalga oshirishda davlat investitsiya dasturini amalga oshirish monitoringi natijalarini ko'rib chiqish;
- investitsion loyihalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish samaradorligini

oshirish yo'llarini ko'rib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasi Davlat investitsiya dasturini bitiruv-malakaviy ishining ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasi investtsion siyosatni davlat byudjetidan moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. INVESTITSION FAOLIYAT VA DAVLAT INVESTITSION SIYOSATI TASHKILIY-HUQUQIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1. Investitsion faoliyat va uni moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

Bugungi kunda rivojlangan investitsion faoliyatning yo'lga qo'yilishi hukumatimiz olib borayotgan oqilona investitsiya siyosatining natijalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tganidek, "Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurilish, eksport imkoniyatini kengaytirish sohasida belgilangan yo'nalishlar kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqadi". Shu bilan birga, Prezidentimiz I.A.Karimov: "O'tgan yili faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratildi" – deya ta'kidlab o'tgan edilar. Shu bois, investitsiyaning iqtisodiy mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qayta taxrirdagi qonunida investitsiyaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Investitsiya – iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir xuquqlar" sifatida ta'riflanadi

Shunday qilib, "Investitsiya" deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmog'lari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan quyiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi.

Boshqacha aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko'rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy – ijtimoiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha harakterlanadi:

Birlamchi avanslangan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik ob'ektlariga joylashtirish;

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlari.

Asosiy kapitalga investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladi, hamda o'zida yangi qurilishga, kengaytirishga, rekonstruktsiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalari, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-harajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot «investitsiya» va «kapital qo'yilma» terminlarini bir xil narsa emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G'arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari va sub'ektlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, Investitsiyaning ob'ekti bo'lib, mablag'larni, ya'ni qonun doirasidagi barcha boyliklarni safarbar etayotgan ob'ektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellektual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunida (6 – modda) investitsiya faoliyati ob'ektlariga quyidagi ta'rif berilgan: "Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish ob'ektlari investitsiya faoliyatining ob'ektlaridir".

Investitsiya sub'ekti bo'lib, investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Ular: xorijiy davlatlar, halqaro moliya institutlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat boshqaruv organlari, turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar, mulk egasi bo'lgan fuqarolar, shu jumladan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin.

Investorlar qonun xujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi:

1. Joriy faoliyatning yo'nalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rovida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalardagi aksioner jamiyatlar namoyon bo'lsalar, individual investorlar rovida fuqarolar namoyon bo'ladi.
2. Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish huquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aktsiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalininn katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar. Ular yana kompaniyalarning qo'shib yoki bankrot bo'lib ketishlarini amalga oshiradilar. Portfel investorlar dividend va foiz shaklida daromad olish maqsadida o'z kapitalini turli moliyaviy vositalarga joylashtiradilar.
3. Rezidentlikka tegishliligi bo'yicha milliy va xorijiy investorlar ajratiladi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda uning ob'ekt va sub'ektlari ishtirok etadi.

Investitsiya sub'ektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir.

Kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirish sub'ektlari quyidagilardir: investorlar, buyurtmachilar, pudratchilar, kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar va boshqalar.

Investorlar o'z mablag'i yoki jalb qilingan mablag' yordamida kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning birlashmasi, davlat organlari va chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar investor bo'lishlari mumkin.

Investorlar quyidagilarni amalga oshirishda teng huquqga ega:

- kapital qo'yilmalar shaklida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda kapital qo'yilmalar hajmi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash, hamda investitsiya faoliyatining boshqa su'ektlari bilan shartnomalar tuzishda kapital qo'yilmalar hisobiga yaratilgan, sotib olingan ob'ektlarga egalik qilish, foydalanish va tassaruf etish;
- shartnoma yoki davlat shartnomasi orqali kapital qo'yilmalarni amalga oshirish va uning natijalariga bo'lgan huquqni yuridik va jismoniy shaxslarga, davlat va mahalliy hokimiyatga o'tkazish;
- imzolangan shartnomalar asosida birgalikda kapital qo'yilmalarni amalga oshirish uchun o'zining va jalb qilingan mablag'larni boshqa investorlarning mablag'lari bilan birlashtirish;
- kapital qo'yilmalarga yo'naltirilgan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish.

Investorlar kapital qo'yilma ob'ektlaridan foydalanuvchilar rovida namoyon bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyati sub'ekti uning ikki va undan ortiq funktsiyalarini qo'shib olib borish imkoniyatini beradi. Investitsiya faoliyati sub'ektlari davlat organlari tomonidan qo'yilgan talablarni bajarishi, hamda maqsadli ravishda kapital qo'yilmalardan foydalanishi zarur.

Investitsiya faoliyati investor tomonidan tanlangan sohalar, hamda investitsiyalar

sarflanishi lozim bo'lgan maqsadlar bilan, ya'ni investitsiya ob'ektlari bilan bog'liqdir.

Investitsiyalarni yo'naltirish sohalari, ishlab chiqarishda ishtiroki va sarflanish ishlariga binoan investitsiya faoliyatining quyidagi ob'ektlarini farqlash mumkin:

- xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi yangidan yaratilgan va modernizatsiyalashtirilgan (yangilangan) asosiy fondlar va aylanma mablag'lari;
- fan-texnika mahsulotlari, izlanishlar, ta'limot, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;
- intellektual g'oyaviy boyliklar, mualliflik, ixtiro, kashfiyot huquqlari, tajriba;
- qimmatbaho qog'ozlar, maqsadli pul jamg'armalari;
- boshqa mulkchilik ob'ektlari;
- mulkiy huquqlar.

Qonun va qonuniyatlarda ta'qiqlangan ekologik va boshqa me'yorlarga, sanitariya-gigiena talablariga javob bermaydigan, yaratilishi va ishlatilishi mumkin bo'lmagan vositalar uchun investitsiyalarni yo'naltirish man etiladi va bu ishlar investitsiyalarni sarflash ob'ekti bo'la olmaydi. Fuqarolar, huquqiy shaxslar va davlatni qonuniy manfaatlariga putur etkazadigan ishlar uchun ham investitsiyalar sarflash man etiladi.

Investitsiyalarni jalb etish va sarflash sohasiga asoslanib investitsiya faoliyati ob'ektlarini turkumini tuzish mumkin.

Investitsiya faoliyati ob'ektlari turkumi investitsiyalarni sarflanish sohasiga binoan quyidagi - chizmada ko'rsatilgan.

-chizma



Investitsiya faoliyatida sohalardan birini yoki bir nechtasini tanlab olish huquqiga investorlarning o'zlari ega bo'ladilar. Ularni hech kim soha yoki investitsiya ob'ektlarni tanlashga majbur eta olmaydi. U yoki bu sohani tanlashda va investitsiyalarni ma'lum bir sohaga sarflashdagi qarorlarni investorlarning o'zlari qabul qiladilar. Investitsiya faoliyati sub'ektlari bo'lib bir investor, bir nechta tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi ishtirokchi investorlar bo'lishi mumkin. Investitsiya faoliyatidagi sub'ektlar investorlar bo'lib, mahalliy va chet ellik fuqarolar, huquqiy shaxslar yoki davlat hisoblanadi. Investitsiyalarni amalga oshirishni esa, qabul qilingan buyurtmalarni bajaruvchisi sifatida, investorni topshirig'i asosida investitsiya faoliyatini ishtirokchilari ta'minlaydilar.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ular fuqarolarni va huquqiy shaxslarni o'z xohishlari bilan shartnomalar asosida jalb qiladilar.

Qonunlarga tayangan holda shartnomalar asosida investitsiyalarga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ushbu faoliyat natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishni investorlar, boshqa fuqaro va huquqiy shaxslar zimmasiga topshirish to'g'risida qarorlar qabul qilishlari ham mumkin. Bunday hollarda majburiyat garovi sifatida (investorni majburiyatini ta'minlash) investorni mulki qabul qilinadi. Garovga faqat qarzga oluvchining shaxsiy mulki yoki to'la xo'jalik olib borish huquqiga ega bo'lgan mulk qo'yiladi.

Investorlar investitsiya natijalariga, investitsiya ob'ektlariga ega bo'lish, foydalanish, farmoyish chiqarish va reinvestorlash huquqlariga egadir.

Investitsiya faoliyatidagi jarayonda sub'ektlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar shartnomalar asosida muvofiqlashtiriladi. Shartnomalar tuzish, sheriklarni tanlash, majburiyatlarni aniqlash va boshqa xo'jalik munosabatlarini o'rganish, ular qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmasa, faqat investitsiya faoliyati sub'ektlari zimmasida bo'ladi. Har ikki tomonning kelishuviga binoan, shartnomalar investitsiya faoliyatining umumiy muddatiga tuziladi.

Qabul qilingan qonunlarda investorning qator majburiyatlari bor. Bu majburiyatlar davlat idora va muassasalari oldida bajarilishi lozim bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

- investorlar investitsiyalar hajmi va ularning manbalari to'g'risida moliya organlariga deklaratsiya topshirishlari lozim;
- kapital qo'yilishni amalga oshirish uchun, tegishli rahbar va maxsus xizmat organlari tomonidan ruxsat olinishi kerak;
- investitsiya loyihasining sanitariya-gigiena va ekologik talablarga javob berishi to'g'risida ekspertiza xulosasiga ega bo'lishi shart.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, investitsiya sub'ektlarining majburiyatlariga quyidagilar ham kiradi:

- vijdonan raqobat qilish va yakka hokimlikka qarshi muvofiqlashtirish talablarini bajarish;
- davlat, rahbar xodim va organlar tomonidan yuklatilgan talablarni baholash va ularga bo'ysunish;
- belgilangan tartibda buxgalterlik va statistik ma'lumotlar, hamda hisobotlarni tegishli idoralarga o'z vaqtida etkazib berish.

Bulardan tashqari investitsiya faoliyatini har bir ishtirokchisi maxsus ishlarni bajarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Litsenziya olish uchun bajarish lozim bo'lgan ishlarni ro'yxati va ularni amalga oshirish tartibi mumkin qadar qonunchilikda belgilanadi.

Investitsiyalashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

1. Resurslarni kapital harajatlariga aylantirish, ya'ni investitsiyalarni aniq investitsiya faoliyati ob'ektlariga investitsiyalash;

2. Qo'yilgan mablag'larni kapital qiymatining o'sishiga aylantirish, bu investitsiyalarni pirovard iste'moli va yangi iste'mol qiymatini olish bilan harakatlanadi:

3. Kapital qiymatini foyda ko'rinishida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning yakuniy maqsadi amalga oshiriladi.

Investitsiya jarayoni – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo'sh mablag'larga ega bo'lganlar)ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmidir. Ikkala tomon odatda moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk) bilan bitim imzolanganda sotuvchi va haridorlar bevosita muomalaga kirishadilar.

-chizmada investitsiya jarayonini aks ettiruvchilar keltirilgan. Chizmadan ko'rinishicha pul resurslarini taklif qilayotgan shaxslar unga ehtiyoj sezayotganlarga moliyaviy institutlar, moliyaviy bozorlar orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri berishi mumkin. Moliyaviy institutlar moliyaviy bozorda talab tomonida va taklif tomonida turib

ishtirok etishi mumkin. Moliyaviy bozorni qisqa muddatli sektori pul bozori deb ataladi, uzoq muddatlisi esa kapital bozori deb atalib, unda fond birjasi o'ni salmoqlidir.

-chizma

Investitsiyalash jarayoni.

Investitsiya jarayoni ishtirokchilari.

Davlat	Kompaniyalar	Xususiy shaxslar
--------	--------------	------------------

Moliya bozori

Chet el korxonalari	Qo'shma korxonalar	Maxaliy investorlar
---------------------	--------------------	---------------------

Yuqoridagilardan kelib chiqib, samara yoki daromad keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya'ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin,

- pul mablag'lari, banklardagi maqsadli jamg'armalar, paylar, aktsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo'lmagan mulklar (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, hamda boshqa moddiy boyliklar);
- mualliflik huquqi, nou-xaulardan tashkil topgan mulkdorlik huquqlari va boshqa intellektual boyliklar;
- er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;
- boshqa boyliklar.

Investitsiyalarning qayd etilgan turlari va shakllari asosida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa davlat tomonidan ta'qiqlanmagan faoliyatlarni barcha investorlar tomonidan amaliy ravishda yo'lga qo'yish, mablag'lar sarflash va ularni

amaliyotga tadbqiq etish chora tadbirlarining yig'indisi **investitsiya faoliyatini** anglatadi.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini fuqarolar, huquqiy shaxslar (korxonalar, firmalar, aksioner jamiyatlari va boshqa tipdagi mulk egalari) va davlat yuritadi.

Investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda har bir mulk egasi, birinchi navbatda o'z manfaatini ko'zlab yagona maqsadga, ya'ni foyda olish va samaraga erishishni rejalashtiradi.

Bozor munosabatlari shakllangan sharoitda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibini -chizmada ko'rish mumkin.

1-chizma

Investitsiya faoliyatini
moliyalashtirish manbalari tarkibi.

Davlat byudjetidan ajratmalar.	Kredit mablag'lari hisobiga.	Xorijiy investitsiyalar va XMI kredit liniyalari mablag'lar.	Qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga.	Investorni o'z mablag'lari hisobidan.
--------------------------------------	------------------------------------	---	--	---

Bozor iqtisodiyotida investitsiya manbalarini mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- investorlarni o'z moliyaviy resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari, fuqarolar, huquqiy shaxslarni jamg'armalari va boshqa manbalar);
- investorlarni qarzga olgan moliyaviy mablag'lari (zayom obligatsiyalari, bank kreditlari);
- investorlarni jalb qilgan moliyaviy mablag'lari (aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan mablag'lar, fuqaro va huquqiy shaxslarni paylari va turli xil badallar;
- davlat byudjetining ajratmalari;
- xorijiy investitsiyalar.

Bozor sharoitida investitsiya faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish jismoniy, huquqiy shaxslarni va davlatni, foyda olish maqsadida tadbirkorlik, ishbilarmonlik va boshqa faoliyatlarini qaytadan tiklashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy maqsad investitsiya faoliyatini tashkil etib iqtisodiyotni inqirozdan olib chiqish, uni barqarorlashtirish, dunyo bozoriga kirib borish, jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashdir.

Bozor iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish yo'li bilan kreditlar evaziga, muomalaga, qonunchilikda belgilangan holda, qimmatli qog'ozlar va zayomlar chiqarish hisobiga

olib boriladi. Davlat mulkini xususiylashtirish tufayli mamlakat miqyosidagi manbalar hisobiga, turli mulk egalarining mablag'lari, yangidan tashkil etilayotgan fondlarni ulushi, chet el investitsiyalari orqali olib boriladi. Albatta, bu borada har bir mamlakatning investitsiya siyosati hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Investitsiya manbalarini tashkil etishda mamlakat iqtisodiyotini barqarorligi, milliy valyuta birligini konvertatsiyalanishi, tashqi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, aholi ehtiyojini ishlab chiqarish hisobiga qondirilishi va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

1.2. Davlat investitsion siyosatining mohiyati, maqsadi va ustuvor yo'nalishlari

Bizga ma'lumki, investitsiya siyosati – bu iqtisodiyotning ustivor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab – quvvatlash, markazlashgan investitsiyalash jarayonidan nomarkazlashgan investitsiya jarayoniga o'tish, ustivor investitsion loyihalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ko'proq ustivorlik kichik biznes sub'ektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga qaratilgan. Davlat investitsiya siyosati mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal qilish va shu asosda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

Investitsiya siyosatining ustivor yo'nalishlari deb quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiyalar, ular harakatlanishi, investitsiya faoliyati ishtirokchilari munosabatlari, ularni tartibga solib turish bo'yicha qulay huquqiy bazani yaratish, amaldagi qonunchilik – huquqiy bazasini takomillashtirish;
- iqtisodiy tub islohatlarni amalga oshirish, maqsadli investitsion siyosatni yurgizish;
- investitsion jarayonni yaxshilash va barcha investitsion jarayon ishtirokchilarining faolligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- davlat boshqaruv organlari, hukumat tashkilotlarining nazorat etish funktsiyalarini yanada takomillashtirish.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohatlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, Davlatning investitsion siyosati, uning ustivor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsion faoliyatni oshirish, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora – tadbirlar o'tkazildi, investitsion faoliyatni tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari chiqarildi va hayotga tadbir qilinmoqda.

O'tgan yillar mobaynida olib borilgan ijobiy investitsion o'zgarishlar natijasida mamlakatimizda qator investitsion ob'ektlar ishga tushirildi. Bularga misol sifatida, Asakadagi UzDeuavto, Navoiydagi Zarafshon Nyumont, Samarqanddagi Samkochavto, Toshkent viloyatidagi UzDongju, Buxoro viloyatidagi neftni qayta ishlash korxonalarini keltirish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish bo'yicha ham qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotda yangi bir termin “investitsion loyiha” kiritildi va uning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi uchun ahamiyati belgilab berildi.

Investitsion loyihalar Vazirlar Maxkamasining 09.04.99 y. dagi 165 – sonli “Chet el investitsiyasi ishtirokidagi ustivor investitsion loyihalarni amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq tuziladi. Unga ko'ra **investitsion loyiha** bu ma'lum ijtimoiy – iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik – iqtisodiy, biznes – boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabi aspektlar asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks xujjatlar yig'indisi

hisoblanadi. Investitsion loyihalar turli maqsadlarda tuziladi va amalga oshiriladi, ularni to'rt guruhga ajratish mumkin:

- yangi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni yoki xizmat ko'rsatishni kengaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- davlat tashkilotlari talabini qondirish, ularni mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash.

Investitsion loyihalarni 4 xil turdagi davr uchun tuzish va moliyalashtirish mumkin:

- qisqa muddatli loyihalar, muddati 1 yilgacha;
- o'rta muddatli loyihalar, muddati 1-3 yilgacha;
- uzoq muddatli loyihalar, muddati 3-7 yilgacha;
- strategik loyihalar, muddati 7-12 va undan ko'p yillarni tashkil etadi.

Loyihalarda yuqoridagi hayotiylik davri muddatlari loyiha ishtirokchilarining optimal foyda olish bo'yicha maqsadlari va rejalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Loyihalarni 3 turdagi aktivlar (mulk) hisobiga moliyalashtiriladi:

1) Moliyaviy investitsiyalar va qarzlar. Bularga qimmatbaho qog'ozlar, bankdagi depozitlar, kreditlar, pul mablag'lari, yuqori likvidli qimmatbaho predmetlar kiradi;

2) Material (moddiy) aktivlar. Bularga ko'chmas mulk, asosiy vositalar, er, ishlab chiqarish texnikasi, liniyalari, xom ashe, va materiallar kiradi;

3) Nomoddiy aktivlar. Bularga nou-xau, himoyalangan firma nomidan foydalanish xuquqi, intellektual mulk, innovatsiyalar, ishchi kapitali aqliy mahsuli kiradi.

Investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida investitsion muhit alohida o'rin egallaydi. Davlat investitsiya siyosatini yuritishdan ko'zlanadigan maqsadlar qatoriga shuni kiritish kerakki, davlat doimiy ravishda investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratishga harakat qilib kelmokda. Investorlarning huquqlarini himoya etish va majburiyatlarini bajarishi ustidan nazorat olib bormoqda.

Investitsion muhit deganda, mamlakatning ma'lum bir regioniga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. Investitsion muhit holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishi talab etiladi.

Respublikada siyosiy – iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investitsiya muhitini yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy shartidir. Investitsion muhit investitsion resurslarni joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlab beradi.

Investitsiya muhitini baholash jarayonida investor investitsiyalashning risk darajasini qanchalik ekanligini aniqlaydi. Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo'lsa, investor o'z tadbirkorlik riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitini makro iqtisodiy darajada quyidagi chizma ko'rinishida (– chizma) tasvirlash mumkin.

Shu bilan birga investitsion faoliyatni amalga oshirish shart-sharoitlarini

ifodalovchi investitsion muhitning quyidagi tashkil etuvchilarning tavsifini keltiramiz 2.3 - chizma. Uning asosiy tashkil etuvchilari sifatida investitsion faollik va o'z ichiga investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini oluvchi investitsion jozibadorlik tushunchalari ko'rsatib o'tiladi.

Investitsion jozibadorlik - mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror bir korxona investitsiyalarining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsion risk darajasi nuqtai nazaridan baholanishidir. Investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqliligi hamda jozibadorligi, investitsion risk darajasini aniqlash mumkin. Investitsion risk darajasi investitsion muhitga bevosita, to'g'ridan – to'g'ri bog'liqdir.

Инвестиция муҳитига таъсир этувчи омиллар

Сиёсий омиллар

- хорижий инвестицияларга нисбатан давлат сиёсати
- халқаро шартномаларга амал қилиш;
- давлатнинг иқтисодиётга аралашishi даражаси;
- халқаро шартномаларда иштирок этиш тизими;
- давлат аппарати

Иқтисодий омиллар

- иқтисодиётнинг умумий ҳолати (ривожланиш ёки ниқироз);
- инфляция даражаси, валюта курси барқарорлиги;
- турлича солиқ, бож тўловлари ва имтиёзлар;
- ишчи кучи қиймати ва ишчи кучидан фойдаланиш тартиби;

Ижтимоий омиллар

- аъзоларнинг муносабати;
- жамиятнинг мафкуравий билим даражаси;
- ишчи синфининг ташкилотчилиги;
- бошқалар.

– chizma. Investitsion muhitni belgilovchi omillar.

ИНВЕСТИЦИОН МУҲИТ

Инвестицион жозибadorлик

Инвестицион фаоллик

Инвестицион
риск

Инвестицио
н салоҳият

– chizma. Investitsion muhitni shakllantirish.

Investitsiya muhitni makroiqtisodiyot darajasida ikki tomonlama, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun ob'ektiv holat bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muxiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng asosiy omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi. Kapital qabul qilish tizimi bu xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosatining va qonunlarining, me'yoriy xujjatlarining majmuasidir. O'zbekistonda ham ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan – yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqalari qoidalariga asoslangan holda qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda, shuningdek xorijiy investitsiyalarning infratuzilmalari yaratilmoqda.

Investitsiya siyosatining **bosh maqsadi** - iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, korxonalar va kompaniyalarning investitsion faolligini kuchaytirish, nomarkazlashgan investitsiyalashga kontsentratsiyalashtirish, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalavrni jalb etish.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda investitsiya siyosati bozor iqtisodiyotiga mos holda bosqichma – bosqich olib borilmoqda.

II BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINI DAVLAT BYUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

1. Davlat byudjetidan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish tahlili

Mamlakatimizda investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirishni bosqichma – bosqich kamaytirish, byudjet mablag'laridan faqat ijtimoiy ahamiyatga ega va iqtisodiyotga muhim strategik loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, investitsiya faoliyatida korxona va tashkilotlar o'z mablag'larining o'rnini oshirish, byudjet yukini engillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ – 1449 – sonli qaroriga muvofiq, foyda solig'i stavkasi 2011 yilda 10 foiz miqdorda belgilandi, shu bilan birga foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, mol – mulk solig'i bo'yicha amal qilgan soliq solishning regressiv shkalasi saqlab qolindi, ya'ni eksport ulushi:

- realizatsiyaning umumiy hajmida 15 dan 30 foizga qadar bo'lganida belgilangan stavka 30 foizga kamaytiriladi;
- realizatsiyaning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p bo'lganida belgilangan stavka 50 foizga kamaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq, Davlat byudjetidan quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha investitsiya loyihalariga byudjetdan mablag'lar ajratilishi mumkin:

- mahalliy xom-ashyo va mineral resurslarni tejovchi ishlab chiqarish infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;
- iste'mol bozorlarini eng zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish (yoqilg'i energetika, metallurgiya, mashinasozlik, gaz, kimyo, qayta ishlash sanoati, agrar-sanoat kompleksi, suv xo'jaligi qurilishi, farmatsevtika sanoati);
 - aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan birinchi navbatdagi ehtiyojlarini qondirish (sog'liqni saqlash, fan, ta'lim sohasi, madaniy-maishiy ob'ektlarini qurish, aholi uchun uy-joy qurilishi, magistral va ko'chalar).

Respublikamiz investitsiya siyosatining amaliy xususiyati tadbirkorlik tizimlarini moliyalashtirish ulushida byudjet mablag'larini kamaytirish hamda korxonaning o'zini moliya bozori institutlari va instrumentlari hisobiga bo'ladigan investitsiya resurslarini jalb qilishga undash va ularni bu bo'yicha faollashtirishdir. Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan har qanday investitsion loyihani iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash, barcha ishtirokchilarni manfaatlarini ifodalovchi turli xil mezonlar va ko'rsatkichlar tizimi asosida bajariladi. Keyingi yillarda byudjet mablag'lari hisobiga alohida investitsiyalarni moliyalashtirishga printsiptial yangicha qadam qo'yildi, bunda:

- a) investitsiya loyihasi nufuzi va iqtisodiy samaradorligini hisobga olib moliyalashtirish uchun investitsiya loyihalari saralash tanlovini o'tkazish;

- b) mablag'larni qaytish yoki qaytmaslik asoslarini baholash;
- c) investitsiya loyihasini moliyalashtirishda davlat ulushini baholash;
- d) investitsiyalarni davlat byudjeti hisobiga moliyalashtiradigan korxonalar uchun maxsus tuzilmani yaratish.

Hozirda byudjet mablag'larni iloji boricha investitsiya dasturiga kirgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirish birlamchi sanalmoqda. Investitsion jarayonlarning rivojlanishiga davlat ta'sirining kamayishi va ishlab chiqaruvchilariga soliq yukini qisqartirishga yo'naltirilgan soliq- byudjet siyosatini takomillashtirish bo'yicha davlat tomonidan qo'llanilayotgan chora-tadbirlar va korxonalar moliyaviy barqarorligining ortishi natijasida markazlashtirilgan mablag'lar hajmining qisqarishiga olib keldi. Byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishning xarakterli tomoni qurilish va ob'ektlarni moliyalashtirish asosan moliya yili uchun byudjet qabul qilindan keyin amalga oshiriladi. Shu bilan birga sarflanadigan mablag'lar nazorati oldindan belgilangan yo'nalish bo'yicha ta'minlanadi. Davlat ehtiyojidagi ob'ektlarni moliyalashtirishni amalga oshirayotgan tijorat banklari byudjet mablag'larini depozit hisob varag'iga o'tkazish, banklararo kredit berishda foydalanish, erkin konvertatsiyalanadigan valyutani sotib olishda va boshqa xil maqsadlarda foydalanishi qat'iy man etiladi.

Mamlakatimizda investitsiya jarayonlarining takomillashib borayotganligi namoyon etuvchi yana bir jihati – davlat byudjetidan moliyalashtirish tarkibidagi nisbatning sezilarli darajada o'zgarib borayotganligi hisoblanadi. Investitsiya jarayonlariga davlat byudjetidan moliyalashtirilgan mablag'lar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, agar 2005 yilda davlat byudjetdan moliyalashtirilgan mablag'larning 36,2% respublika byudjeti, 63,8% mahalliy byudjet hisobiga ta'minlangan bo'lsa, 2009 yilda bu nisbat tegishli ravishda 35,5% va 64,5% ni tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning ishtiroki va roli kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Davlat investitsiya siyosatining uch jihatiga e'tibor beradi.

1. Davlatning byudjet daromadlari va olgan qarzlar hisobidan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirish.
2. Davlat tomonidan milliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsion sharoit yaratish.
3. Davlat sektori bilan barcha sektorlardagi investitsiya faoliyatini rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiiyot va statistika vazirligi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, vazirliklar va idoralar bilan birgalikda joriy va kelgusi yil uchun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish bo'limidagi qurilishlarni alohida ko'rsatgan holda kapital qo'yilmalar loyihasini ishlab chiqadi. Loyihalarni ko'rib chiqishda markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar manbalarini hisobga olinadi.

Markazlashgan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti mablag'lari;
- davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari;

- O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan chet el investitsiyasi va kreditlari.

Markazlashmagan kapital qo'yilmalar manbalari quyidagilardan iborat:

- qo'shma, xorijiy, xususiy, O'zbekiston Respublikasi noreze-dentlarining xususiy korxonasi mablag'lari;
- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mablag'lari;
- tijorat banklarining kreditlari;
- aholining mablag'lari.

Davlat dasturiga kiritiladigan investitsiya takliflari birinchi navbatda ekologik talab va me'yorlarga javob berishi kerak, uning asosiy mezonlari quyidagilar hisoblanadi:

A) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ob'ektlar uchun:

- mahalliy xom ashyo va menereal resurslarni qayta ishlashni keng masshtablarda kengaytirish, ularni raqobatbardosh tayyor mahsulot darajasiga etkazish;
- irrigatsiya, ishlab chiqarish infrastrukturasini va zamonaviy kommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan, yuqori texnologiyaga asoslangan va resurslar tejalib ishlatiladigan ren-tabelli ishlab chiqarishni yaratish;
- bozorni birinchi darajadagi eng kerakli tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish.

V) noishlab chiqarish ahamiyatidagi ob'ektlar uchun:

- aholining birinchi darajali ijtimoiy infrastruktura xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash;
- aholiga xizmat ko'rsatish infrastruktura sohasida yanada ko'proq aholini qamrab olish va xizmat sifatini oshirish.

O'zbekistonda investitsiyalarning iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga yo'naltirilganligi, qanday maqsad va jarayonlarga birlashtirilganligini bilgan holdagina ularning mohiyatini anglash mumkin.

Iqtisodiy sohaga ajratilayotgan byudjet mablag'lari ichida markazlashgan investitsiyani moliyalashtirish muhim rol o'ynaydi va katta salmoqni egallaydi. Bu turdagi xarajatlarni sarflashdan iqtisodiy o'sish talab hajmiga va ichki bozorni shakllantirishga ta'sir o'tkazish kabi maqsad ko'zda tutiladi.

Markazlashgan investitsiyalar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish asosan Davlat investitsiya dasturi asosida olib boriladi. O'zbekiston Respublikasining Davlat investitsiya dasturi respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasidir. Davlat investitsiya dasturi milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, dasturga kiritilgan korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun qulay investitsiya muhitini

barpo etishda muhim o'rin tutadi.

-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2009-2011 yillarga investitsiya dasturidagi kapital qo'yilmalarning asosiy parametri (mln.so'm).

Moliyalashtirish	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Kapital qo'yilmalar, jami	10 458 864	18 220 293	20 721 845
1. Markazlashgan investitsiyalar	2 464 960	3 819 784	4 696 491
Byudjet mablag'lari	902 710	825 000	950 000
Erlarni meiorativ xolatini yaxshilash fondi	-	92 976	105 000
Byudjetdan tashqari fondlar	572 021	654 930	911 834
Respublika tiklanish va taraqqiyot fondi	305 657	1 372 166	1 353 527
Hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar	684 572	874 711	1 376 130
2. Markazlashmagan investitsiyalar:	7 993 904	14 400 509	16 025 354
Korxona mablag'lari	4 643 000	7 777 700	7 536 261
Tijorat banklari kreditlar va boshqa qarz mablag'lari	560 000	153 000	2 069 185
To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar va kreditlar	1 963 723	3 876 809	3 835 109
Aholi mablag'lari	827 181	1 216 000	2 584 800

Ushbu 3-jadvalda 2011 yilgi investitsiya dasturini 2010 yilgi dastur bilan taqqoslasak 2011 yilgi dastur investitsiyalash manbalari deyarli 2 trl so'mga ko'paygan. Bu asosn markazlashtirilgan investitsiyalash manbalarida xukumat kafolati ostida jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalarga, yani 2010 yildagi 874 mlrd sumni tashkil qilgan bo'lib, 2011 yilda 1 trl 376 mlrd sumni tashkil qilmoqda bu asosan OTB mablag'lari xisobiga ko'paygan.

Davlat investitsiya dasturlari O'zbekistonning o'rta (2000-2005 yillar) va uzoq muddatli (2005-2010 yillar) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asoslanadi. Davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyili qurilayotgan ob'ektlarga byudjetdan moliyalashtirish orqali va imtiyozli tarzda tijorat banklari kreditlari orqali yordam ko'rsatishdan iborat. Davlat investitsiya dasturlari, qoida tarzida, byudjetdan moliyalashtirish va hukumat kafolati bilan chetdan olingan kreditlashga asoslanadi. Investitsiya takliflarini Davlat investitsiya dasturiga kiritishda va loyihalarning tanlovini tashkil etishda, odatda, har bir sektor doirasida davlat ustuvorliklariga, ulardan har birining texnik jihatlariga va moliyaviy qaytimiga birinchi o'rinda e'tibor beriladi.

Investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qo'yilmalar doirasida investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash buyurtmachilar tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan belgilagan tartibda kelishilgan qurilishlarning aniq ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan qurilishlarning aniq ro'yxatlarini shakllantirish buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Buyurtmachi Investitsiya dasturi tasdiqlangandan keyin bir hafta muddatda Iqtisodiyot vazirligiga qurilishlarning aniq ro'yxatlarini kelishish uchun taqdim etadi. Qurilishlarning aniq ro'yxatlariga, birinchi navbatda, keyingi yilga o'tuvchi ob'ektlar, shu jumladan bajarilgan ishlar uchun isbotlangan kreditorlik qarzlari mavjud bo'lgan ob'ektlar kiritiladi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga mablag' bilan ta'minlash va kreditlash ishlari Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan byudjet mablag'lari ajratish buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ish hajmlarini bajarish, asbob-uskunalar, butlovchi materiallar, buyumlar va konstruktsiyalar etkazib berish hamda mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq ro'yxatlariga binoan amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalarni qaytarish asosida byudjet ajratmalari hisobidan ajratishda qarz mablag'larini qaytarish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, mablag' bilan ta'minlovchi bank muassasasi va buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solib boriladi.

Byudjet mablaglariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda quyidagi harajatlar hisobga olinadi: o'tgan yilda bajarilgan ishlar hajmi uchun kreditorlik qarzlarni to'lash; qurilishlarning aniq ro'yxatlariga kiritilgan ob'ektlarda bajariladigan ishlar bo'yicha joriy yilning hisobot oyidagi kreditorlik qarzlarni to'lash va boshq.

-chizma.

Markazlashgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtirishda taqdim etiladigan hujjatlar

Davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlashni rasmiylashtirish uchun buyurtmachilar mablag' bilan ta'minlovchi banklarga: loyiha- smeta hujjatlarini); Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan yangidan boshlanayotgan qurilishlarning yillar bo'yicha bo'lingan aniq ro'yxatlarini, keyingi yillarga o'tuvchi qurilishlarning aniqlashtirilgan aniq ro'yxatlarini; qurilishning barcha davri uchun bajarilgan ishlar uchun hisob-kitob shakllari ko'rsatilgan pudrat shartnomalarini; qurilishning yig'ma smeta hisob-kitoblarini; loyiha hujjatlari bo'yicha "Davarxitektqurilish" qo'mitasining davlat idorasidan tashqari ekspertizasi va davlat ekologiya ekspertizasining xulosalarini takdim etadilar

Har bir loyiha bo'yicha Davlat investitsiyalar dasturida, qoida tarzida:

- davlat tomonidan moliyalashtirish (hukumatning moliyalashtirish va moddiy aktivlar ajratish bo'yicha majburiyatlari bilan birga) summasi;
- o'z mablag'lari (mahalliy sherikning va chet ellik sherikning mablag'lari alohida-alohida) summasi ko'rsatiladi.

Tijorat kreditlari (mamlakatdagi va xorijdagi), tashqi moliyalashtirish kabi manbalarga kelganda esa, ular, qoida tarzida, aniq ko'rsatilmaydi, chetda qoladi va davlat investitsiyalar dasturida moliyalashtirishning etishmagan qismi ko'rsatiladi. Shuning uchun loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun investitsiya loyihalarini saralashda ular ustuvorliklari va mezonlarini tanlash jarayonlarini mukammallashtirish talab etiladi.

Davlat investitsiya dasturlarini tuzishda moddiy va moliya resurslarini balanslash masalasi e'tibordan chetda qoladi. Ushbu investitsiyalarning moliyaviy ta'minoti dasturlari tuzilmaydi, holbuki bu dasturlarda investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun ulardan har birining qiymatini baholash maqsadlarida turli resurs manbalar nisbatlarini aniq-ravshan belgilash mumkin bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi investitsion dasturi to'g'risida»gi 1455-son Qarorida:

- davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 2011 yilgi markazlashgan kapital qo'yilmalar limiti;
- Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi mablag'lari hisobidan 2011 yilgi markazlashgan kapital qo'yilmalar limiti;
- Respublika yo'l fondi mablag'lari hisobidan 2011 yilgi markazlashgan kapital qo'yilmalar limiti;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari hisobidan 2011 yilgi ta'lim muasssalarini rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va yoritish ishlari dasturi;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolatlari ostida xorijiy kreditlarni jalb qilish asosida 2011 yilgi investitsion loyihalarning manzilli dasturi belgilandi.

Bizning fikrimizcha, investitsiyalar xususidagi qarorlar, davlat investitsiya dasturlari menejmentini tashkil qilish, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish moddiy resurslari bilan bog'liqlikda olib borilishi kerak. Davlat investitsiyalar dasturlari menejmenti resurslarni jalb qilish holatidan kelib chiqqan holda halqaro darajada amalga oshirilishi lozim. Davlat darajasida investitsiya dasturlarining moliyaviy ta'minlash manbalari dasturi va ularni ta'minlaydigan moddiy resurslar dasturi tuzilishi talab etiladi.

2.2. Investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish shakllari tahlili

Jahon amaliyotida byudjetdan moliyalashtirish asosan, quyidagi shakllarida amalga oshiriladi:

- byudjet investitsiyasi yoki byudjetdan beriladigan bevosita mablag'lar;
 - byudjet krediti;
 - investitsion soliq krediti.

Byudjet investitsiyasi, bu byudjetdan bevosita beriladigan mablag'lardir. Bu davlat investitsiya dasturiga kirgan maqsadli investitsiya loyihalariga berilib, u qaytmaslik xususiyatga ega.

Byudjetdan bevosita beriladigan mablag'lar asosan ijtimoiy sohalar qurilishlariga va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalariga uchun beriladi va bu loyihalar ko'proq ijtimoiy samara berishlari lozim.

Byudjet krediti, bu yuridik shaxs maqomini olgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga asosan shartnoma asosida beriladi va bu berilgan summa qaytarilish xususiyatiga ega.

Prof. D.G'.G'ozibekov ta'kidlab o'tganidek: "davlat korxonalariga nisbatan, davlat byudjetidan investitsiya ajratishni, belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditga aylantirilib, uni tender asosida taqsimlash bozor talabiga mos keladi".

Byudjet krediti olish uchun, uning qaytarilish ta'minoti bo'lib, tijorat banklari kafilligi, mol-mulk garovi, likvidli mablag'lar, jumladan, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Byudjet krediti oldin berilgan byudjet mablag'larini o'z vaqtida qaytargan yuridik shaxslarga beriladi.

Byudjet krediti mablag'larini qarz oluvchi tijorat banklarida ochilgan maxsus hisob – raqamlariga pul ko'chirish orqali o'tkaziladi.

Byudjet krediti olgan yuridik shaxs byudjet kreditlari summasi va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarishlari, shu bilan birga, byudjet kreditidan maqsadli foydalanishlari shart. Bundan tashqari ular byudjet kreditidan foydalanish to'g'risida kerakli moliya organlariga hisobot va ma'lumotlar taqdim etishlari shartdir.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirilayotgan investorlarni byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning maxsus shakllaridan biri bo'lib, **investitsion soliq krediti** hisoblanadi.

Bu alohida hollarda berilgan byudjet kreditlarini va unga hisoblanadigan foizlarni to'lash uchun yuridik shaxslarga soliq to'lash bo'yicha vaqtincha berilgan imtiyozdir. Bu imtiyozlar bir martadik, bosqichli yoki soliq stavkalarini kamaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya soliq krediti korxonalarning daromad (foyda) soliqiga hamda mahalliy soliqlariga nisbatan bir yildan besh yilgacha berilishi mumkin.

Investitsiya soliq krediti quyidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirilayotgan korxona va tashkilotlarga berilishi mumkin:

- Ilmiy – tadqiqotlar olib boruvchi tashkilotlar;
- Atrof – muhitni sanoat va boshqa chiqindilar ifloslanishidan saqlovchi

yoki ularni qayta ishlovchi korxona va tashkilotlar;

- Nogironlar uchun ish o'rinlarini yaratuvchi korxonalar.

Ba'zi hollarda muhim investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi korxonalarga davlat byudjeti hisobiga davlat kafolati hamda maxsus shartlarda beriladi. Lekin, bu loyiha bo'yicha davlat barcha risklar summasini qoplamasligi mumkin. Bundan tashqari, korxona qarama – qarshi ta'minot turini, shu jumladan garov majburiyatini ta'minlashi lozim bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini byudjetdan moliyalashtirish tijorat banklarida ochilgan quyidagi hisob – raqamlari orqali amalga oshiriladi:

- 23442 – Investitsiya dasturini moliyalashtirish uchun davlat byudjetidan va markazlashgan kreditlar hisobidan ajratilgan bo'nak (avans) mablag'lar;
- 23402 – Respublika byudjeti mablag'lari;
- 23426 – Tumanlar, shahar mahalliy byudjet mablag'lari;
- 23430 – Viloyatlar mahalliy byudjet mablag'lari;
- 23432 – Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy byudjeti mablag'lari;
- 23422 – Kapital qo'yilmalarni respublika byudjetidan moliyalashtirish;
- 23424 – Kapital qo'yilmalarni mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish va boshqalar.

Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan kapital qo'yilmalar limitlari belgilangan tartibda shakllantirilishi, hamda yig'ma byudjet tarkibida tasdiqlanadi.

Investitsiya jarayonlarida davlatning ishtirokini qisqartirishga yo'naltirilgan mamlakatda o'tkazilayotgan ma'muriy islohatlar markazlashtirilgan mablag'lar hajmining pasayishiga olib keldi. 2007 yilgi tasdiqlangan investitsiya dasturiga asosan, byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiyalar hajmi 460 mlrd so'mni yoki jami investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining 9,2 % ini tashkil etdi.

2.3. Investitsiya jarayonini amalga oshirishda davlat investitsiya dasturini amalga oshirish monitoringi

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag' berish bitimiga tegishli barcha hujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me'yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o'z ichiga oladi. Monitoring investitsion faoliyat ishtirokchilarining moliyaviy holatini baholash, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarini tahlil qilish, tekshirib borish va nazorat qilish asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda respublikamizda har yili yuzlab loyihalarni moliyalashtirish amalga oshirilmokda. Bu loyihalar davlat byudjeti mablag'lari, xalqaro kredit liniyalari mablag'lari hisobiga, byudjetdan tashqari fondlar, banklar, chet ellik va xususiy investorlar tomonidan moliyalashtirilgan ekan, albatta, bu mablag'larning qaytarilishi va ma'lum miqdorda ularning foyda bilan ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan, shuningdek mol etkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham moliyalashtirilayotgan barcha loyihalar ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan. Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosda faoliyat yuritadilar.

Monitoring investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonidagina xos bo'lmasdan, balki ularni moliyalashtirishgacha bo'lgan davrlarda ham o'tkaziladi. Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziluvchi monitoringning ahamiyati shundaki, u loyihani moliyalashtirish davridagi monitoringga nisbatan afzalroq va ahamiyatliroq hisoblanadi. Chunki uning natijasida investorlarning loyihani amalga oshirishdagi maqsadlari oldindan ko'proq ta'minlanish imkoniyatlari hosil qilinadi.

Loyihani moliyalashtirishga qadar o'tkaziladigan monitoring quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: investitsiya kontseptsiyalarini qidirish; loyihani boshlang'ich tayyorlash; loyihani so'nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy moliyaviy afzalligini baholash; loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va u bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Loyihaning ushbu bosqichlardan o'tishi investitsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunday vaziyatni keltirib chiqarish uchun investitsiya g'oyasini amalga oshirishning barcha jihatlari puxta tayyorlanishi va shunga mos biznes-reja (investitsiya loyihasi) ishlab chiqilishi lozim. Bunday loyiha

salohiyatli (potentsial) investorlar manfaatiga mos kelar ekan, demak, o'tkazilgan tadqiqot ishlari ko'zlangan natijaning hosil qilinishini ta'minlaganligini ko'rsatadi.

Natijalar va o'tkazilgan tahlillarning foydali hisoblanishi loyihani amalga oshirish va uni moliyalashtirishning eng yaxshi variantini tanlash to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu bosqich yondashuvining afzalligi loyihani tayyorlashga sarflangan xarajatlarning samaradorligini ko'rsatib berish va oshirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek ushbu bosqich eng ustuvor va samarali loyihani aniqlash va tanlab olish imkonini ham beradiki, bu esa istiqbolsiz deb topilgan loyihalarning o'z vaqtida aniqlanishini va rad etilishini hamda yirik miqdordagi mablag'larning behuda sarflanishining oldi olinishini ta'minlaydi. Loyihalarni bunday saralash esa hamisha muhim hisoblanib kelinadi.

Mablag'lar kiritishga munosib biznes-g'oyalarni qidirish va tanlash investitsiyalash bilan bog'liq faoliyatning eng muhim boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Sababi, ushbu hol, oxir-oqibatda, investitsiya mablag'larini safarbar etish asosiga aylanishi mumkin. Buning uchun loyihani boshlang'ich tayyorlash ishlari puxta olib borilishi lozim.

Loyihani boshlang'ich tayyorlash bosqichining vazifasi esa investitsiya loyihasining munosib biznes-rejasini ishlab chiqish, ya'ni har qanday tijorat faoliyati uchun umumiy masalani hal etishdan iboratdir.

So'nggi qarorni qabul qilish uchun ma'lumotlarning barcha turlarini tayyorlash loyihani so'nggi shakllantirish va moliyaviy afzalligini puxta baholash bosqichining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu bosqich faqat kerakli moliyaviy mablag'larning etarlicha aniqlik darajasida qat'iy ta'minlangan bo'lishi mumkin bo'lgan hollardagina amalga oshirilishi lozim.

So'nggi va navbatdagi bosqich loyihani uzil-kesil ko'rib chiqish va loyihani moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'nggi qaror qabul qilish hisoblanib, u loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha qaror qabul qilish uchun asos hisoblanuvchi baholash ishlarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Loyihaning sifati qanchalik yuqori bo'lsa, uni baholash bo'yicha shunchalik kam ish olib boriladi. Asosiy e'tibor loyihani moliyalatirishni amalga oshiruvchi muassasa faoliyatiga qaratiladi. Agar firma tajribali va salohiyatli bo'lsa, loyihaning tashkiliy-moliyaviy jihatdan muammolarining butunlay hal etilishi ta'minlanishi mumkin. Loyihani eng so'nggi baholashda qo'llaniladigan usullar esa tahlilning texnik, tijorat, bozor, boshqaruv, moliyaviy jihatlariga asoslanadi.

Davlat investitsiya dasturini amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi 251-sonli Qarorining 2-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risi"dagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturning davlat monitoringi:

- respublika investitsiya dasturiga kiritilgan va birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

- davlat boshqaruvi organlarining, investitsiya jarayoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning investitsiya loyihalarini, ular to'liq tugallangunga qadar, amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni o'z vaqtida hal etish yuzasidan javobgarligini oshirish;

- investitsiya loyihalari harakatiga ularni amalga oshirishning barcha bosqichlarida to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o'rganish, ularni, shu jumladan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan turli xil masalalarni ko'rib chiqish muddatlarini o'zgartirish yo'li bilan, bartaraf etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish;

- investitsiya loyihalari tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat'iy rioya qilingan holda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va vakolatli banklar tomonidan mablag'lar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi ustidan nazorat qilish;

- investitsiya loyihasi bo'yicha xorijiy sheriklar oldida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishiga ko'maklashish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar va takliflar bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Dasturning monitoringi har oyda statistika hisoboti va so'rov yo'li bilan Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Dasturning monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to'g'risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga Dasturni shakllantirishda foydalaniladi.

Xullas, Davlat investitsiya dasturi monitoringi investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja-jadvallarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotini, mavjud va potentsial xorijiy investorlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini, manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni, markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINI MOLİYALASHTIRISHDA DAVLAT BYUDJETINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

3.1. Investitsion jarayonlarni moliyalashtirishda davlat investitsion dasturlarining ahamiyatini oshirish yo'llari

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng markazlashgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan erkin demokratik iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tib bormoqda. Bu yo'lda jamiyat hayotining barcha sohalarida ko'pdan-ko'p iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning samaradorligini ta'minlashning asosiy omillardan biri investitsiya siyosatidir. Investitsiya siyosati orqali respublikamiz xom ashyo etkazib beruvchi davlatdan industrial mamlakatga aylanish imkoniyatini investitsiyalarni amalga oshirish bilan yuzaga chiqarishi mumkin. Bu investitsiya siyosati samaradorligini ta'minlovchi, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va hozirgi kun talablariga javob beradigan mukammal investitsiya dasturini ishlab chiqishni talab etadi.

Har bir loyiha bo'yicha Davlat investitsiyalar dasturida, qoida tarzida:

- davlat tomonidan moliyalashtirish (hukumatning moliyalashtirish va moddiy aktivlar ajratish bo'yicha majburiyatlari bilan birga) summasi;
- o'z mablag'lari (mahalliy sherikning va chet ellik sherikning mablag'lari alohida-alohida) summasi ko'rsatiladi.

Tijorat kreditlari (mamlakatdagi va xorijdagi), tashqi moliyalashtirish kabi manbalarga kelganda esa, ular, qoida tarzida, aniq ko'rsatilmaydi, chetda qoladi va davlat investitsiyalar dasturida moliyalashtirishning etishmagan qismi ko'rsatiladi. Shuning uchun loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun investitsiya loyihalarini saralashda ular ustuvorliklari va mezonlarini tanlash jarayonlarini mukammallashtirish talab etiladi.

Fikrimizcha, biz iqtisodiyotimiz va mamlakatimizning jahon maydonidagi raqobatdoshligini, eng avvalo, puxta ishlab chiqilgan va oqilona yuritilayotgan investitsiya siyosati orqaligina ta'minlash mumkin. Investitsiyalar xususidagi qarorlar, davlat investitsiya dasturlari menejmentini tashkil qilish, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish moddiy resurslari bilan bog'liqlikda olib borilishi kerak. Davlat investitsiyalar dasturlari menejmenti resurslarni jalb qilish holatidan kelib chiqqan holda halqaro darajada amalga oshirilishi lozim. Davlat darajasida investitsiya dasturlarining moliyaviy ta'minlash manbalari dasturi va ularni ta'minlaydigan moddiy resurslar dasturi tuzilishi talab etiladi.

Ta'kidlab o'tilgan nuqtai nazardan O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan olib borgan ish tajribalari diqqatga sazovordir. Bank

xalqaro moliya institutlari bilan aniq investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik qiladi. Mazkur bank investitsiyalarning asosiy oqimi vazifasini bajarib, ularning taqsimoti hamda ularga xizmat ko'rsatishda qatnashadi. Bank uchun loyihaviy moliyalashtirish kabi faoliyat turi ustuvor hisoblanadi. Investitsion loyihalarni baholash va tanlab olishda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida eksport potentsialini o'stirishga va import o'rnini bosishga yordam beradigan, o'zini oqlaydigan, ekologik toza loyihalar ma'qul ko'riladi. Bu bank tizimida chet el kreditlarini jalb qilish va foydalanish hamda investitsiya loyihalarini saralash bo'yicha samarali tizim yaratilgan.

Respublikamizda loyihalarni baholash, tahlil qilish, tanlovini o'tkazish va moliyalashtirish masalalari shakllanish hamda takomillashish bosqichida ekanligini ko'rsatadi. Investitsiya loyihalarini baholash va amalga oshirish samaradorligini ko'tarish maqsadlarida loyiha tsikli hamda loyiha tahlili bo'yicha jami ishlar majmuini yagona davlat instituti – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki zimmasiga yuklatish zarur.

Davlat investitsiya dasturiga faqat texnik-iqtisodiy asoslashlar o'tkazilgan, smetalari tasdiqlangan, muqobil qarorlar asosida, moliyalashtirish manbalari bilan yuz foiz ta'minlangan, shu jumladan, tashqi moliyalashtirish manbalari bilan aniq ta'minlanishi belgilangan loyihalarni kiritish lozim. Afsuski, bugungi kun amaliyotida loyihasi tayyor bo'lmagan investitsion proektlar ham kiritilmoqda, bu esa, vazirlik va tegishli idoralarning Investitsiya dasturini amalga oshirishga nisbatan tayyorgansizligini anglatadi.

Davlat investitsiya dasturini shakllantirish jarayonidaga asosiy muammolar va kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarmoq vazirliklari beradiga investitsiya takliflarida axborotlarning etarli darajada aniq va sifatli bo'lmasligi;
- moliyalashtirish imkoni bo'lgan manbalarni topish nuqtai nazaridan xorijiy sheriklar uchun investitsiya takliflarining jozibasizligi, ko'lami kengligi va oydin emasligi;
- ko'pgina yuqori ixtisoslashgan yirik loyihalar bo'yicha talab darajasida tuzilgan texnik-iqtisodiy asosnomalar va batafsil tayyorlangan smetalarning yo'qligi;
- vazirliklar, viloyat hokimliklaridagi investitsiya bo'limlarining etarli darajada maxsus malakaga ega emasligi;
- davlat kompaniyalari va xususiy investorlar sherik bo'lgan qo'shma korxonalar, aktsiyadorlik jamiyatlari loyihalari mavjudligi sababli davlat investitsiyalari sof hajmlarining bir qadar mavhum ko'rsatilishi;
- joriy sarflar va loyihalardan kutiladigan daromadlar bo'yicha xarajatlar tarkibining tushunarsizligi va boshq.

Hech shubhasiz, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsion faoliyat ishtirokchilarining imkon qadar ko'proq manfaatdor

bo'lishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish choralarini izlab topish katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon inqirozi sharoitida mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu birinchi navbatdagi eng muhim vazifa bo'lishi zarur. Shu bilan birga, investitsion siyosatda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish alohida etibor qaratmoq kerak.

Shunisi diqqatga sazovorki, respublikamizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonda investitsion faoliyatga ta'siri va uning oqibatlarini oldini olish bo'yicha Prezidentimiz ko'rsatmalari asosida ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar dasturida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi va ushbu vazifalarning amalga oshirilishi inqiroz oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qiladi:

- korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga (eksportga yo'naltirilgan) keng joriy etish, bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi;

- joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan, 1) aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish; 2) tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

- qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish, shu jumladan, rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish;

- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish, sababi, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejamli

foydalana olishimizga bog'liqdir;

- jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Investitsion faoliyat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida bugungi kunda banklarda omonatlarning ko'payishiga, ularning bank tizimiga jalb etilishiga nimalar to'sqinlik qilayotganini har tomonlama chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini bank sektoriga jalb qilishda ta'sirchan va uzoq muddatli rag'batlantirish omillarini tashkil etish, iqtisodiyotning real sektoriga kredit ajratishni ko'paytirish uchun banklarning imkoniyatini kengaytirish kerak.

Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlarini mustahkamlash zarur.

Tijorat banklari va ularning tegishli bo'linmalari rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish shuni ko'rsatdiki, ularning aksariyati amaldagi qonunchiligimizni va investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini etarli darajada bilmaydi. Shu sababli ham banklar hali-beri investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga, investitsiya loyihalarini hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlarini joriy etishda korxonalar va kichik biznes sub'ektlarining haqiqiy hamkorlariga aylana olmayotganini afsuslanib ta'kidlash kerak.

Xullas, jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda Davlat Investitsiya dasturi va kapital qurilishga qaratilgan investitsiya siyosatini takomillashtirishga, eng avvalo, Inqiroza qarshi choralar dasturida investitsiya sohasiga taaluqli bo'lgan va belgilab olingan vazifalarni o'z vaqtida bajarish va samarali tadbiq etish bilangina erishish mumkin.

Bizga ma'lumki, davlat investitsiyasining ahamiyati rejali iqtisodiyotda alohida o'rin tutadi, lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning roli katta va ayrim tarmoqlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda juda ham zarurdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, davlat ayrim tarmoqlarni shakllanishiga, ishlab chiqarishni o'sishida boshlang'ich manbalarini tashkil etilishiga yoki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashi lozimdir.

Davlat byudjeti hisobidan investitsiyalarini moliyalashtirishda, ularni strategik rivojlanishda ahamiyatga ega bo'lgan, lekin kelajakda tez samara bera

olmaydigan tarmoqlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilishi lozim.

Bozor iqtisodiyotining bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, faqat davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish byudjet hisobida amalga oshiriladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitda byudjet hisobidan moliyalashtirilayotgan tarmoqlarning asosiy vazifasi shulardan iborat bo'lish kerakki, ular tomonidan safarbar etilayotgan byudjet mablag'larini samaradorligini oshirish va byudjetdan mablag' ajratishda to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilinishi kerak. Byudjet mablag'larini ajratishdagi qabul qilinadigan qarorlar esa byudjet mablag'larini rejalashtirish bilan bog'ladi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, investitsion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishda xorij tajribalarini chuqur o'rganish va tanqidiy o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xarajatlar tarkibida kapital qo'yilmalarga mablag' solish alohida o'rin tutadi va ular xo'jalik konyukturasi va iqtisodiy rivojlanish, ichki bozor hajmi va talab holati yordamida qandaydir miqdorda ta'sir etadi. AQSh Moliya vaziri bo'lgan U.Saymon kapital qo'yilmalar to'g'risida: "Ko'p qirrali iqtisodiy, siyosiy va sotsial omillar ichida iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga kapital qo'yilmalar ko'proq ta'sir etadi¹", - deb ta'kidlaydi.

Davlat kapital qo'yilmalari umumishlab chiqarish jarayonida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki, asosiy kapitalni kengaytirish va yaratish manbalari kapital jamg'armalarni rag'batlantirish vositalariga bog'liq.

Shuni aytib o'tish kerakki, respublikamizda qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha ishlarni yanada kuchaytirish bundan buyon ham bizning uzoq muddatga mo'ljallangan strategik vazifamiz bo'lib qolishi darkor. Shu maqsadda Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi tijorat banklari bilan birgalikda banklarning investitsion faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha o'z takliflarini ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishni tezlashtirishlari lozim. Bunda o'z mablag'lari hisobidan istiqbolli tarmoqlar va hududlarni investitsiyalash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar ajratishda ulushi yuqori bo'lgan banklarga soliq imtiyozlari berish nazarda tutilishi kerak.

Shuningdek, hozirda muhokama qilinishi lozim bo'lgan mamlakatimizga yangi sarmoyalar oqimi kelishi yo'lidagi to'siq va cheklashlarni olib tashlash bo'yicha echimini kutayotgan dolzarb muammolar ham mavjud. Bunga misol qilib konvertatsiyalash muammosini olish mumkin. Bundan tashqari, dolzarb masalalardan biri Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidir.

Shu bilan bir qatorda, mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, bu borada oldimizda turgan vazifalarni echish uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishimiz kerak. Bunda asosiy e'tiborni sifat masalasiga, ajratilayotgan resurslar va moddiy baza imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga qaratish darkor.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarni davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirishda, bizning fikrimizcha, quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: mamlakatning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlashni davom ettirish; byudjet hisobiga amalga oshiriladigan investitsion loyihalarning tanlovini, davlat ekspertizasini chuqur o'tkazish; davlat byudjeti mablag'larining xududlar bo'yicha mutanosib taqsimlanishiga asosiy e'tiborni qaratish; byudjet mablag'lari hisobiga qurilayotgan qurilish ob'ektlariga o'tkazilayotgan tanlov (tender) savdolarini har qanday byudjet hisobiga quriliyotgan ob'ektlar uchun ikki bosqichli tanlov savdosini o'tkazish va boshqalar.

Hech shubhasiz, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsion faoliyat ishtirokchilarining imkon qadar ko'proq manfaatdor bo'lishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish choralarini izlab topish katta ahamiyat kasb etadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish jahon moliyaviy inqirozining tahdid va xatarlariga munosib qarshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirining oldini olish imkonini beradi. Ayni paytda bu dastur inqirozdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotining investitsiya faoliyatini yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy va investitsion o'sishni ta'minlashga zamin hozirlaydi.

2.

Investitsion loyihalarni davlat byudjetidan moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'llari

Davlat byudjetining xarajatlari xarajatlarning aniq turlari orqali namoyon bo'ladi. Byudjet xarajatlari aniq turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: davlatning iqtisodiy tabiati va funktsiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; byudjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; byudjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari. Jamiyatning iqtisodiy hayotida byudjet xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha va ma'lum maqsadlariga ko'ra alohida guruhlariga ajratilishi mumkin. Eng avvalo, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, Davlat byudjetining xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi.

Byudjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

- tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;
- yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun byudjet kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;
- kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;
- amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulkni oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;
- Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy turkumlanishiga muvofiq byudjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya va subvensiya shaklida ko'rsatiladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va Davlat byudjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar byudjetning joriy xarajatlari deyiladi. Takror ishlab chiqarishdagi rolga ko'ra, Davlat byudjetining xarajatlari milliy iqtisodiyotga (xo'jalikka) qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi. Bu xarajatlarga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zaxiralarini yaratish xarajatlari kiradi.

Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar o'tgan yillar davomida o'zini natijaviyligi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, jahon-moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy jihatlarini mamlakatimiz

iqtisodiyotiga ta'sir doirasini kamligini o'z vaqtida ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi choralar Dasturining ishlab chiqilganligi bilan izohlashimiz mumkin. Shu bilan birga iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar xususida Prezidentimiz I.A.Karimovning: "...Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi" – deya ta'kidlab o'tganliklari alohida ahamiyat kasb etadi.

Byudjetdan bevosita beriladigan mablag'lar asosan ijtimoiy sohalar qurilishlariga va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalari uchun beriladi va bu loyihalar ko'proq ijtimoiy samara berishlari lozim. Byudjet krediti, bu yuridik shaxs maqomini olgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga asosan shartnoma asosida beriladi va bu berilgan summa qaytarilish xususiyatiga ega.

Professor D.G'.G'ozibekov ta'kidlab o'tganidek: "davlat korxonalariga nisbatan, davlat byudjetidan investitsiya ajratishni, belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditga aylantirilib, uni tender asosida taqsimlash bozor talabiga mos keladi".

Jahon amaliyotida byudjetdan moliyalashtirish quyidagi shakllarida amalga oshiriladi: byudjet investitsiyasi yoki byudjetdan beriladigan bevosita mablag'lar; byudjet krediti; investitsion soliq krediti. Byudjet investitsiyasi, bu byudjetdan bevosita beriladigan mablag'lardir. Bu davlat investitsiya dasturiga kirgan maqsadli investitsiya loyihalariga berilib, u qaytmaslik xususiyatiga ega.

Byudjet krediti olish uchun, uning qaytarilish ta'minoti bo'lib, tijorat banklari kafilligi, mol-mulk garovi, likvidli mablag'lar, jumladan, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. Byudjet krediti oldin berilgan byudjet mablag'larini o'z vaqtida qaytargan yuridik shaxslarga beriladi. Byudjet krediti mablag'larini qarz oluvchi tijorat banklarida ochilgan maxsus hisob – raqamlariga pul ko'chirish orqali o'tkaziladi. Byudjet krediti olgan yuridik shaxs byudjet kreditlari summasi va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarishlari, shu bilan birga, byudjet kreditidan maqsadli foydalanishlari shart. Bundan tashqari ular byudjet kreditidan foydalanish to'g'risida kerakli moliya organlariga hisobot va ma'lumotlar taqdim etishlari shartdir.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirilayotgan investorlarni byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning maxsus shakllaridan biri bo'lib, investitsion soliq krediti hisoblanadi. Bu alohida hollarda berilgan byudjet kreditlarini va unga hisoblanadigan foizlarni to'lash uchun yuridik shaxslarga soliq to'lash bo'yicha vaqtincha berilgan imtiyozdir. Bu imtiyozlar bir martadik, bosqichli yoki soliq stavkalarini kamaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Investitsiya soliq krediti korxonalarining daromad (foyda) solig'iga hamda mahalliy soliqlariga nisbatan turli muddatga berilishi mumkin.

Investitsiya soliq krediti quyidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirilayotgan korxona va tashkilotlarga berilishi mumkin:

- ilmiy – tadqiqotlar olib boruvchi tashkilotlar;
- atrof – muhitni sanoat va boshqa chiqindilar ifloslanishidan saqlovchi yoki ularni qayta ishlovchi korxona va tashkilotlar;

- nogironlar uchun ish o'rinlarini yaratuvchi korxonalar.

Ba'zi hollarda muhim investitsiya loyihalarini amalga oshiruvchi korxonalarga davlat byudjeti hisobiga davlat kafolati hamda maxsus shartlarda beriladi. Lekin, bu loyiha bo'yicha davlat barcha risklar summasini qoplamasligi mumkin. Bundan tashqari, korxona qarama – qarshi ta'minot turini, shu jumladan garov majburiyatini ta'minlashi lozim bo'ladi.



3.1
.1-

rasm.

4 -rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash

Modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlar, texnik shartlar, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirishdir. Asosan iqtisodiyot, mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi». Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R. Nureev talqiniga e'tibor qaratamiz. “Iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo'lmasligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi”. Modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy jarayondir. Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industriallashtirilgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonlarini namoyon etadi. Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, iqtisodiyotni yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va shu maqsaddagi xarajatlarni moliyalashtirishni takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.

Islohotlar va o'zgarishlar yo'lida faqatgina erishilgan marralar bilan cheklanib qolish aslo mumkin emas. Iqtisodiyotdagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni hech qachon nihoya bilmaydi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida «...Hayotga tatbiq etayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tish modelning ma'no-mazmuni – davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiy xarajtalarni moliyalashtirish, ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat».

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot rivojlanishining turli strategiyalari mavjud: resurslarni samarali taqsimlash va kapital jamg'arish, bozor mexanizmlarini keng joriy qilish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini tugatish, davlat moliyasi va pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanish. Bizning fikrimizcha, kapitalda ishtirok etishga asoslangan rivojlanish strategiyasi yo'lidan borish lozim. Bunda investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha, iqtisodiyot uchun resurslarini safarbar etish va ulardan samarali foydalanish, xorijiy investitsiyalarini jalb etish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash loyihalarini «davlat-tijorat moliyalashtirish» tadbirlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya jarayonlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining o'rni va ahamiyati o'rganish jarayonida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o'z natijalarini berayotganligi, shu bilan birga davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish muvofiqligi ma'lum bo'ldi. Bitiruv malakaviy ish yozish davomida quyidagi xulosalarga kelindi.

Davlat investitsiya dasturini shakllantirish, eng avvalo, investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, zarur hajmlarda, maqbul shartlarda xorijiy investitsiyalarni va kreditlarni jalb etish, loyihalarni tanlab olishning amaliy mexanizmini shakllantirish, belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarini qo'llab quvvatlash, mineral xom-ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni va ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo'llab quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish kabilarga asoslanadi;

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda respublika byudjet xarajatlarini qisqartirib borish darajasiini kuchaytirish va ushbu maqsadlar uchun jalb qilingan chet el sarmoyalarini o'zlashtirishni kuchaytirish lozim.

Investitsiyalar xususidagi qarorlar, davlat investitsiya dasturlari menejmentini tashkil qilish, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish moddiy resurslari bilan bog'liqlikda olib borilishi kerak. Davlat investiyalar dasturlari menejmenti resurslarni jalb qilish holatidan kelib chiqqan holda halqaro darajada amalga oshirilishi lozim. Davlat darajasida investitsiya dasturlarining moliyaviy ta'minlash manbalari dasturi va ularni ta'minlaydigan moddiy resurslar dasturi tuzilishi talab etiladi;

- Davlat investitsiya dasturiga faqat texnik-iqtisodiy asoslashlar o'tkazilgan, smetalari tasdiqlangan, muqobil qarorlar asosida, moliyalashtirish manbalari bilan yuz foiz ta'minlangan, shu jumladan, tashqi moliyalashtirish manbalari bilan aniq ta'minlanishi belgilangan loyihalarni kiritish maqsadga muvofiqdir;

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi sharoitida byudjet hisobidan moliyalashtirilayotgan tarmoqlarning asosiy vazifasi shulardan iborat bo'lish kerakki, ular tomonidan safarbar etilayotgan byudjet mablag'larini samaradorligini oshirish va byudjetdan mablag' ajratishda to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilinishi lozim:

- investitsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining hududlar bo'yicha mutanosib taqsimlanishiga asosiy e'tiborni qaratish;

- byudjet mablag'lari hisobiga qurilayotgan qurilish ob'ektlariga o'tkazilayotgan tanlov (tender) savdolarini har qanday byudjet hisobiga qurilayotgan ob'ektlar uchun ikki bosqichli tanlov savdosini o'tkazish va boshqalar;

- byudjet hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirishdan avval loyihalarining davlat ekspertizasidan chuqur o'tkazish asosida uning tanloviga e'tibor qaratish hamda moliyalashtirilayotgan loyihalar hayotiy va eksportbop bo'lishi lozim;

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida keltirilgan mulohazalarimiz pecpyblikada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiya jarayonlarini

moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'larining o'rnini oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.: "O'zbekiston", 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, Norma, 2011 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. Xalq so'zi gazetasi, 2000 yil 14 dekabr, 2-3 b.
4. O'zbekiston Respublikasining qonuni. «Chet el investitsiyalari to'g'risida». 1998 yil 30 aprel //O'zbekistonning yangi qonunlari, 1998 yil, 19-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 1998. 24 dekabr. /Xalq so'zi/, 1999. 12 yanvar. 7-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 yanvardagi PQ-554-sonli "Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda 1455 – sonli "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 11 aprel "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 aprel "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2005 yil 15 noyabrda 251-sonli Qarorining 2-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risi"da Nizom
11. I.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2011 yil. 22 yanvar 7-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori. 2011 yil 30 dekabr.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori. 2010 yil 24 dekabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1245-sonli Qarori. 2009 yil 22 dekabr.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1024-sonli Qarori. 2008 yil 29 dekabr.
16. Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". - T: "O'zbekiston", 2012. - 36 b.
17. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish,

- xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // – T.: O'zbekiston. 2011. – 48 b.
18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. // - T.: O'zbekiston. 2011. – 56 b.
 19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. // – T.: O'zbekiston. 2010. – 80 b.
 20. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. T., O'zbekiston. 2005. -526b.
 21. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 2008. T.16. – 365 b.
 22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 4-b.
 23. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008
 24. Analiz investitsionniy proektov: Uchebnoe posobie M.S.Angelidi., N.G.Karimov. Tashk. fin. in-t. – T.: 2005.
 25. A.Vaxobov, Sh.Xojibakiev. "Xorijiy investitsiyalar" O'quv qo'llanma. Bank-moliya akademiyasi, "Moliya" nashriyoti. 2010 y.
 26. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. "Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi". O'quv qo'llanma. TMI.-T.: «Iqtisod-moliya» 2006 y.
 27. Vahobov A.A. Qosimova.G.A. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T., «Moliya-iqtisod». 2004. -287 b.
 28. Vahobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya. 2005. -197b.
 29. Malikov T.S., Haydarov H.N. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. Iqtisod-moliya. T., 2007. -85 b.
 30. Malikov T.S., Haydarov H.N. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. Iqtisod-moliya. T. 2007. -245 b.
 31. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Sharq. 2006. -4806.
 32. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008 yil.
 33. T.S.Malikov, N.H.Xaydarov "Moliya: umumdavlat moliyasi" T: "IQTISOD-MOLIYA", 2009 yil
 34. Vaxrin P.I., Neshitoy A.S. Investitsii: Uchebnik. – 3-e izd., pererab. I dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K», 2005.
 35. Suxov V.A. Gosudarstvennoe regulirovanie finansovoy ustoychivosti straxovshchikov. — M- Ankil, 2005
 36. Jo'raev A.S., Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalarini tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma - T.: - «Sharq», 2003.
 37. Zell A. Biznes-plan: Investitsii i finansirovanie, planirovanie i otsenka proektov: Per. s angl. - M.: Izdatelstvo «Os-89», 2004.
 38. Investitsii i ekonomika. Nablyudaetsya investitsionnaya aktivnost chastnogo

sektora. Jurnal. Ekonomicheskoe obozrenie. №4. 2008.

39. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2003.
40. Karimov N. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish. "BPK" jurnali, 2000.
41. D.G'ozibekov. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. – T.: 2002. iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati,
42. <http://cbu.st.uz>.
43. <http://www.uzbekinvest.uz>
44. <http://www.sugurta.uz>
45. <http://invest-faq.com/>;
46. www.google.uz
47. www.gov.uz
48. www.referat.ru;
49. www.ziyonet.uz
50. www.stat.uz
51. www.infoman.uz

